



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MEHNAT TARBIYASI BERISHNING AHAMIYATI

H.R.Shernafasova

Urganch davlat universiteti

“Maktabgacha ta'lim metodika”si kafedrası

o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Maktabgacha yoshdagi bolalarga mehnat tarbiyasi berishning mazmuni, bolalar bog'chasida mehnat tarbiyasining vazifasi va mazmunini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun maktabgacha yosh guruhlarda kerakli shart-sharoitlar yaratilishi lozimligi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *mehnat tarbiyasi, mehnat, kichik guruh, katta guruh, sayr, o'z-o'ziga xizmat, axloqiy, estetika.*

Yosh avlodga mehnat tarbiyasi berish masalasi hozirgi vaqtda eng muhim mavzu hisoblanadi. Mehnat har bir kishi kamolotida, umuman jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy, aqliy, axloqiy va estetik tomondan tarbiyalashda mehnat tarbiyasi muhim ahamiyatga ega.

Mehnat bolalarda diqqat, zehnilik, topqirlik, o'rgangan malaka va ko'nikmalarini amaliyotda qo'llay bilish, ijodkorlik qobiliyatlarini egallashni talab etadi. Mehnat jarayonida bolalar qisman ish turlarini (bir varaq qog'oz buklash, kerakli uzunlikni o'lchab olish, andozaga qarab shaklni qirqish kabi harakatlarni) anglatuvchi bir nechta tushuncha va atamalardan foydalanishga, bajarilgan ishdagi izchillikni so'zlab berishga to'g'ri keladi. Bular bola nutqini yangi so'zlar bilan bo-yitadi, uning mantiqiy bog'liq ravishda grammatik jihatdan to'g'ri shakllanishiga imkon beradi.

Bolalarni oddiy mehnat qurollari, materiallarga ishlov berish usullari bilan tanishtirish lozim. MTTdagi mehnat bolalarni maktabdagi politexnik ta'limga tayyorlaydi.

MTTlarida mehnat tarbiyasining vazifasi va mazmunini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun kerakli shart-sharoitlar yaratilishi lozim. Bolalar mehnati uchun joy, vaqt va gigiyenik shart-sharoitlar yaratilmog'i kerak. Ozodalik, toza havo, kerakli darajadagi yorug'lik, mehnatning bolalar imkoniyatiga muvofiq bo'lishi, mehnat vaqtini bolalar yoshiga qarab to'g'ri belgilash (kichik yoshli bolalar uchun 10-12 daqiqa, katta guruh bolalari uchun 15-20 daq), bolalar harakatlarini almashtirib turishni ham e'tiborga olish kerak.

Kichik bog'cha yoshidagi bolalarning mehnati biror jarayonga doir harakat bo'lib, u faqat kattalarning rahbarligi natijasidagina amalga oshirilishi mumkin.

Bola kubiklarni bir joydan ikkinchi joyga, mashinadan stolga, stoldan mashinaga ko'chiradi va hokazo. Tarbiyachi boshqa stol ustidagi kubiklarni ko'rsatib, uni mashinada ortib olib borish kerakligini aytadi. Bola kubiklarni mashi-nasida shkafga



tashiy boshlaydi va joyiga tartibli qilib joylab qo'ya boshlaydi. «Qatnov» bir necha marta takrorlanib, barcha kubiklar joyiga yig'ishtirib qo'yiladi. Bolalar faoliyatida maqsad paydo bo'ladi. Keyingi galda bolaning o'zi o'ynayotgan o'rtoqlariga o'ynab bo'lgandan keyin o'yinchoqlarni mashinada joyiga olib borib qo'yishni aytadi.

Bolalarning mehnat faoliyati qachon va qanday qilib o'yindan ajratiladi? Kichik guruh yoshidagi bolalar mehnatining asosiy turi o'z-o'ziga xizmatdir. Bu kichik bolalar uchun bir muncha mashaqqatli ishdir. Shuning uchun bu yoshdagi bolalarni mehnatning bu turiga o'rgatishda ko'pincha o'yin vaziyatlaridan foydalaniladi («Qo'g'irchoqni sayrga otlantiramiz», «Qo'g'irchoqni uxlatamiz» va shularga o'xshash). Avvaliga bolalar o'yin obrazi orqali mehnatga o'rgatiladi. Shu orqali bolalar ishonch bilan harakat qilishni o'rganadilar. Sekin asta o'z-o'ziga xizmat qilish malaka, ko'nikmalari shakllana boradi. Katta guruh bolalarida mustaqil maqsad qo'yish qobiliyati moddiy samara beradigan mehnat turlarida muvaffaqiyatli rivojlanadi: gulzorlarda, ekinzorlarda ishlash, o'yinchoqlar yasash va boshqalar.

Faoliyatni rejalashtirish mehnat tarbiyasining muhim tarkibiy qismlaridan hisoblanadi. Bolalarni kuzatish ular faoliyatining tartibsiz, rejasiz ekanligini ko'rsatadi. Bolalar bunday harakatlar orqali biror natijaga erishish uchun juda ko'p vaqt va kuch sarflaydilar, shu bilan bir vaqtda o'z ishlaridan o'zlari qoniqmaydilar.

Kattalarning mehnati bilan bolalarni tanishtirish yana quyidagi maqsadni ko'zlab ham amalga oshiriladi: kattalar mehnati haqida aniq bilim va tasavvurlar berish, mehnatni va mehnat natijalarini qadrlashga o'rgatish, mehnatga qiziqtirish va muhabbat uyg'otish, mehnat qilish xohishini chuqur tarbiyalash va ishni sifatli bajarishga o'rgatish.

V.I.Loginovanning olib borgan ilmiy-tadqiqot ishlarida ta'kidlanishicha, bolalarga mehnat tarbiyasini o'rgatish uchun ular mehnat hamda mehnat malakalari to'g'risidagi bilimlar sistemasini o'zlashtirib olishlari kerak:

1. Mehnat maqsad qo'yish hamda uning natijasini belgilab olish bilan boshlanadi: maqsad mehnat tasviri.
2. Mehnat qilishdan ko'zlangan maqsad bo'yicha kerakli materiallarni tahlalab olish.
3. Materialni ishlashga kerakli asboblarni tanlab, ajratib olish.
4. Natijaga erishish maqsadidah mehnat harakatlarini bajarish.

Bog'cha yoshidagi bolalar bilan o'tkaziladigan sifatlar natijasida bolalarda mehnatga nisbatan ijobiy, yahshi munosabat, mehnat qilish ishtiyoqi tug'iladi. Kattalarning mehnat jarayonlariga taqlid qilish dastlab bolalarning o'yinlarida paydo bo'ladi. Bolalar kattalarning mehnat faoliyatlarini o'zlarining o'yinlarida taqlidan takrorlash bilan cheklanib qolmay, kattalar mehnatida bevosita qatnashish uchun harakat qila boshlaydilar. Masalan: qiz bolalar onalari ovqat pishirayotganlarida yordamlashishga, kir yuvayotganda ayrim kichikroq narsalarni (dastro'mollarni) chayishda qatnashadilar. Uy va xovlilarni yig'ishtirib supurishga, suv sepishga, o'g'il



bolalar esa otasi bajarayotgan ishlarda qatnashishga intila boshlaydilar. Bu yoshdagi bolajonlarni mehnatining natijasiga qarab emas, balki mehnat jarayonining o'ziga qiziqishi psixologik jihatdan xarakterlidir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, maktabgacha yoshdagi bolalarda ahamiyatli hisoblangan – iroda, mustaqillik va tashabbuskorlik kabi shaxsiy xususiyatlar rivojlana boshlaydi. Katta bog'cha yoshida bola atrofdagi odamlar bilan turli faoliyatlarda munosabatlarga kirishishga o'rgana boshlaydilar. Bu esa unga kelajakda odamlar bilan til topishishda, ish bo'yicha va shaxsiy munosabatlarni normal ravishda o'rnata olishida foyda keltiradi. Bu yoshdagi bolalar shaxsining shakllanishida ularning otanalari haqidagi fikrlari, ularga beradigan baholari nihoyatda ahamiyatlidir.